

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

2025

2 -SON

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori

demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
2-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,
Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor
Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)
Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor
Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD
Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD
Asqarova Muhabbat Ibraximovna
Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Умурзаков Баходир Хамидович, Акбарова Малика Ильхомовна <i>Стратегические направления повышения занятости населения в Республике Узбекистан: анализ современного состояния и прогнозирование на период до 2030 года.....</i>	4
Saidjabbor Shoiria Saidg'affor q'izi <i>Гендер тенглиги ва минтақаларнинг барқарор ривожланишини таъминлашнинг хорижий амалиёти.....</i>	17
Файзиева Дилафруз Шухратовна <i>Демографик ўсиш ва иқтисодий ривожланишнинг ўзаро алоқадорлиги.....</i>	34
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li <i>O'zbekiston aholi soniga tashqi mehnat migratsiyasining ta'sirini baholash.....</i>	46
Xudayberdiyev Islamjan Zakirovich <i>Aholining kapital bozorda ishtirok etishga bo'lgan qiziqishini baholash.....</i>	55
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li <i>Hududlarda yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsion jarayondan foydalangan holda zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.....</i>	63
Yunusova Ugiloy Bolqiboyevna <i>Problems and solutions in organizing public events in Uzbekistan.....</i>	74
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li <i>Moliyaviy salohiyatni baholash metodologiyasini shakllanishida makroiqtisodiy indikatorlarning ahamiyatliligi.....</i>	88
Soatov Farhod Komiljon o'g'li <i>Raqamli platformalar orqali real vaqt rejimida boshqaruv hisobotlarini shakllantirish</i>	103
Жулиева Гулноз Юлдашевна, Джулибеков Нурмат Каршибекович <i>«Зелёная» экономика Республики Узбекистан, перспективы развития.....</i>	113
Умурзаков Баходир Хамидович <i>Меҳнат ресурсларининг сифат ва малакавий таркибини шакллантиришда инновацион тенденциялардан фойдаланишнинг хориж тажрибаси таҳлили.....</i>	120
Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи <i>Банклар ресурс базасини мустаҳкамлашда капиталнинг ўрни.....</i>	129
Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi <i>O'zbekiston fiskal siyosatining mehnat migratsiyasi va bandlikka ta'siri: konseptual tahlil</i>	135
Jurayev Elyorbek Sobirjon o'g'li <i>Kichik biznes uchun investitsion muhitni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari.....</i>	
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li <i>Xorijiy investitsiyalar va sanoat korxonalarini modernizatsiyalash: muammo va imkoniyatlar</i>	160
Suvonov Bekniyoz Baxtiyor o'g'li <i>Mehnat ko'rsatkichlari tahlilining xorij tajribasi va undan respublikamizda qo'llash jihatlari.....</i>	140

O'ZBEKISTON AHOLI SONIGA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASINING TA'SIRINI BAHOLASH

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-1936-7885

k.gulmurodov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston aholi soni dinamikasiga tashqi mehnat migratsiyasining demografik ta'siri tahlil qilinadi. Migratsiya oqibatida yuzaga kelayotgan hududiy nomutanosiblik, tug'ilish ko'rsatkichlari oshishi, mehnatga layoqatli aholi qatlaminin ortishi kabi omillar statistik usullar asosida o'rganilgan. Tadqiqot natijalari migratsiya jarayonlarining uzoq muddatli demografik oqibatlarini aniqlashga va tegishli siyosiy qarorlarni ishlab chiqishga ilmiy asos yaratadi. Maqola nazariy hamda amaliy jihatdan dolzarb bo'lib, demografik siyosatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tug'ilish, o'lim, tashqi migratsiya, mehnat, aholi, demografiya, talab, taklif, mehnat resursi, iqtisodiyot, mehnatga layoqatlilik, mehnat bozori, hudud.

ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ВНЕШНЕЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ НА ЧИСЛЕННОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Гулмуродов Камолиддин Абдукодир угли

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируется демографическое влияние внешней трудовой миграции на динамику численности населения Узбекистана. На основе статистических методов были изучены такие факторы, как территориальный дисбаланс, возникающий в результате миграции, рост рождаемости, увеличение трудоспособного населения. Результаты исследования создают научную основу для определения долгосрочных демографических последствий миграционных процессов и разработки соответствующих политических решений. Статья актуальна как с теоретической, так и с практической точки зрения и служит совершенствованию демографической политики.

Ключевые слова: рождаемость, смертность, внешняя миграция, труд, население, демография, спрос, предложение, трудовые ресурсы, экономика, трудоспособность, рынок труда, регион.

ASSESSMENT OF THE IMPACT OF EXTERNAL LABOR MIGRATION ON THE POPULATION OF UZBEKISTAN

Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli -
Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the demographic impact of external labor migration on the population dynamics of Uzbekistan. Such factors as territorial imbalances arising as a result of migration, an increase in birth rates, and an increase in the working-age population were studied on the basis of statistical methods. The research results provide a scientific basis for determining the long-term demographic consequences of migration processes and the development of relevant policy decisions. The article is theoretically and practically relevant and serves to improve demographic policy.*

Keywords: *birth, death, external migration, labor, population, demography, demand, supply, labor resources, economy, work capacity, labor market, territory.*

Kirish.

So'nggi o'n yilliklarda globallashuv, iqtisodiy tengsizlik va ishchi kuchi talabining mintaqaviy nomutanosibligi natijasida mehnat migratsiyasi jahon miqyosida keng tus oldi. Bu jarayon Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O'zbekiston uchun ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda, O'zbekiston aholisi soni 37 milliondan oshgan bo'lib, mehnatga layoqatli qatlamning ulushi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Aholi sonining ortib borishi mamlakat ichida ish o'rinlariga bo'lgan talabni keskin kuchaytirar ekan, bu talabni to'liq qondira olmaslik tashqi mehnat migratsiyasini kuchaytirayotgan asosiy omillardan biridir.

Tashqi mehnat migratsiyasi bir tomondan O'zbekiston fuqarolarining iqtisodiy ahvolini yaxshilash, valuta tushumlarini oshirish va xorijdan tajriba orttirgan malakali ishchi kuchini shakllantirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan esa mamlakat ichidagi demografik muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, mehnatga layoqatli yoshlar, ayniqsa erkaklar va reproduktiv yoshdagi ayollarning ommaviy chiqib ketishi natijasida hududiy demografik muvozanat buziladi, tug'ilish ko'rsatkichlari pasayadi, qarish sur'ati tezlashadi hamda ijtimoiy barqarorlik muammolari yuzaga keladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har yili 1,5-2 millionga yaqin fuqaro vaqtincha yoki doimiy mehnat faoliyatini xorijda amalga oshirmoqda. Bu ko'rsatkich O'zbekiston aholisining qariyb 5 foiziga teng bo'lib, bunday ko'lamdagi demografik harakatlarning ta'sirini chuqur o'rganmasdan turib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yuritish qiyinlashadi. Bugungi kunda ayrim

viloyatlarda mehnat resurslarining kamayishi, oilaviy ajrimlar sonining ortishi, erkaklarsiz uy xo'jaliklarining ko'payishi kabi holatlar mehnat migratsiyasining demografik oqibatlaridan dalolat bermoqda.

Shu bilan birga, migratsiya oqibatida ortga qaytgan fuqarolarni reintegratsiya qilish, ularning tajribasini iqtisodiyotda samarali jalb etish ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Mehnat migratsiyasining demografik tarkibga ta'sirini baholash - nafaqat mavjud muammolarni aniqlash, balki ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini oldindan prognozlash imkonini ham beradi. Ayni shu nuqtai nazardan olib qaraganda, ushbu tadqiqot O'zbekiston aholisi sonining shakllanishi, tabiiy o'sish sur'atlari va hududiy demografik muvozanatga tashqi mehnat migratsiyasining ko'p qirrali ta'sirini chuqur ilmiy asosda yoritishga qaratilganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston hukumati migratsiya siyosatni tartibga solish, mehnat bozorini diversifikatsiya qilish va mahalliy ish o'rinlarini ko'paytirish bo'yicha keng ko'lamli dasturlarni amalga oshirmoqda. Biroq, ushbu siyosatning natijadorligini ta'minlashda, aynan migratsiyaning demografik oqibatlarini tizimli o'rganish va hisobga olish zarurati ortib bormoqda. Demak, mavjud tendensiyalarni tahlil qilish va ularni boshqaruv tizimlariga integratsiya qilish - dolzarb ilmiy va amaliy vazifa sifatida e'tirof etilishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda tizimli tahlil, demografik dinamikani statistik usullarda o'rganish va taqqoslama yondashuv asosida ishlov berildi. Rasmiy statistik ma'lumotlar Statistika agentligi, Jahon banki, IOM ma'lumotlari asosida tashqi mehnat migratsiyasi va aholi soni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik korrelyatsion tahlil yordamida baholandi. Shuningdek, migratsion oqimlarning hududiy va gender tafovutlariga oid indikatorlar zamonaviy vizualizatsiya usullari orqali namoyon qilindi. Tadqiqotda iqtisodiy-demografik modellashtirish yondashuvi asosida prognozlash elementlari ham qo'llanildi.

Adabiyotlar sharhi.

Migratsiyaning iqtisodiyotga ijobiy ta'siri to'g'risida xulosalar Shene (2007) tomonidan taklif etilgan. Ya'ni migratsiya fuqarolarning boshqa davlatlardan iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun ko'proq pul va yaxshi sharoit izlab chiqishi va iqtisodiyotning bo'sh joylarida band bo'lishini keltirib o'tgan.

Migratsiya bo'yicha sotsiologik tadqiqotlarni Masseyning (1993) sotsiologiya va migratsiya sotsiologiyasi muammolarining kesishishi sifatida o'rgangan asrlarida kuzatish mumkin. Ayniqsa, sintetik migratsiya nazariyasida, xalqaro migratsiya hodisasini tavsiflovchi migrantlarning mayli aniq kuzatilgan.

Sotsiologlar Yadov va Zdravomislovlarning (2002) fikricha, malakaga ega bo'lmagan yoki past malakali xodimlarning o'zlarining shahsiy va ishlab

chiqarish jarayonida olib boruvchi faoliyatlaridan qoniqmaganliklari tufayli ish joylarini o'zgartirishga bo'lgan harakatlarini ijobiy baholananishi zarur, deb e'tirof etadilar.

Amelina (2017) migratsiya sotsiologiyasi yopiq, aniq belgilangan tadqiqot sohasi emas, aksincha ochiq va xilma-xil bo'lib, ko'pincha qizg'in konseptual va uslubiy munozaralar bilan ajralib turadi. Ushbu munozaralar tadqiqot sohasining o'zida fanlar, metodologiyalar va migratsiya tadqiqotlari va amaliyotning boshqa ijtimoiy sohalari o'rtasida doimiy "chegarani kesib o'tish" ning uchta shakli bilan ta'minlanadi deb keltiradi.

Davronova (2025) Yoshlar tomonidan qayd etilgan mehnat bozoridagi asosiy muammolar - bu ish o'rinlarining yetishmasligi va qishloqlarda ishchi kuchiga bo'lgan talabning pastligi, norasmiylikning yuqori darajada ekanligi va ish haqining pastligi ekanligini keltirib bergan.

Abduraufov (2024) sotsiologik omillar muhojirlarni ko'pincha yangi muhitga kirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, masalan, til to'sig'i, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishning etishmasligi, kamsitish va ijtimoiy izolyatsiya. Ushbu muammolar ularning moslashishini va yangi mamlakatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini qiyinlashtirishi mumkinligini o'rgangan.

Mallayev (2025) migratsiya ijobiy global hodisa. U iqtisodiy o'sishni kuchaytiradi, tengsizlikni kamaytiradi, turli jamiyatlarni bog'laydi va bizga aholi o'sishi va kamayishining demografik to'lqinlarini yengishga yordam beradi deb hisoblaydi.

Gulmurodov (2022) migratsiya natijalari bo'yicha o'zida rejalashtirilgan va tashkillashtirilgan jarayonlarni aks ettiradi, migratsiya faqatgina boshqa hududlarda insonlar faoliyatlarini olib borishlari mumkin bo'lgan bo'sh ish joylari mavjud bo'lgandagina iqtisodiyotda o'z aksini topadi, jamoaviy tashkil etilgan safarbarlik holatlarini cheklanganligiga urg'u berib, individul va rejalashtirilmagan migratsiya holatlarini alohida ta'kidlab o'tgan.

Tahlil va natijalar.

O'zbekiston Respublikasida aholi sonining jadal o'sishi va mehnat bozorining cheklanganligi, mehnatga layoqatli qatlam orasida xorijiy davlatlarga vaqtinchalik yoki doimiy asosda chiqib ketish holatlarini kuchaytirmoqda. Bu jarayon demografik tuzilmaning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, migratsiya oqibatida ayrim hududlarda yoshlar ulushi sezilarli darajada kamaymoqda, tug'ilish ko'rsatkichlari pasaymoqda, oilaviy tarkibda o'zgarishlar yuzaga kelmoqda, ayollarning va bolalarning ijtimoiy himoyasizligi oshmoqda. Bu holatlar esa respublika bo'yicha tabiiy o'sish sur'atlarining muvozanatiga tahdid solmoqda.

Amaliyotda kuzatilayotgan holatlarga qaramay, O'zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasining demografik tuzilishga ta'siri hali yetarli darajada tizimli ravishda o'rganilmagan. Ilmiy adabiyotlarda asosan migratsiyaning iqtisodiy foydalari, valuta tushumlari, pul o'tkazmalari va xorijdan qaytgan fuqarolarning bandligini tiklash bilan bog'liq jihatlar yoritilgan. Biroq, bu jarayonning demografik oqibatlari – ya'ni aholi soni, yosh tarkibi, mehnat resurslari salohiyati, tug'ilish ko'rsatkichlari, qarish sur'atlari kabi omillar bilan o'zaro bog'liqligi bo'yicha chuqur ilmiy tahlillar yetarli emas. Shuningdek, mavjud statistik ma'lumotlar asosan umumiy sonlar bilan cheklanadi, migratsiya oqibatida yuzaga kelayotgan hududiy, gender, yosh jihatidagi tafovutlar to'liq aks ettirilmaydi. Bu esa muammoning murakkabligini yanada chuqurlashtiradi va demografik prognozlarning aniqligini susaytiradi. Masalan, migratsiya sababli tug'ilish darajasining pasayishini yoki aholi qarish sur'atining tezlashishini miqdoriy jihatdan aniqlash mexanizmlari O'zbekiston ilmiy-amaliy tajribasida hanuz yetarli shakllanmagan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining doimiy aholi soni (ming. kishi)

Klassifikator	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
O'zbekiston Respublikasi	32656,7	33255,5	33905,2	34558,9	35271,3	36024,9	36799,8	37543,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1842,3	1869,8	1898,3	1923,7	1948,5	1976,2	2002,7	2029,7
Andijon viloyati	3011,7	3066,9	3127,7	3188,1	3253,5	3322,7	3394,4	3461
Buxoro viloyati	1870,2	1894,8	1923,9	1947,1	1976,8	2009,7	2044	2077
Jizzax viloyati	1325	1352,4	1382,1	1410,5	1443,4	1475,5	1507,4	1537,6
Qashqadaryo viloyati	3148,4	3213,1	3280,4	3335,4	3408,3	3482,3	3560,6	3639,3
Navoiy viloyati	958	979,5	997,1	1013,6	1033,9	1055,5	1075,3	1094,7
Namangan viloyati	2699,6	2752,9	2810,8	2867,5	2931,1	2997,5	3066,1	3131,7
Samarqand viloyati	3720,1	3798,9	3877,4	3947,7	4031,3	4118,2	4208,5	4297,5
Surxondaryo viloyati	2514,2	2569,9	2629,1	2680,8	2743,2	2806,5	2877,1	2945,5
Sirdaryo viloyati	815,9	829,9	846,3	860,9	878,6	896,6	914	930,8
Toshkent viloyati	2861,2	2898,5	2941,9	2975,9	2941,5	2993,4	3051,8	3108,5
Farg'ona viloyati	3620,2	3683,3	3752	3820	3896,4	3976,3	4061,5	4144,7
Xorazm viloyati	1805	1835,7	1866,5	1893,3	1924,2	1958,1	1995,6	2032,4
Toshkent shahri	2464,9	2509,9	2571,7	2694,4	2860,6	2956,4	3040,8	3112,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat Statistika agentligi ma'lumotlari asosida shakllantirildi

Yana bir muhim masala - tashqi mehnat migratsiyasi oqibatida oilada yuzaga kelayotgan demografik beqarorlik, farzandlar tarbiyasida yuzaga kelayotgan bo'shliqlar va ayollar zimmasiga tushayotgan ortiqcha ijtimoiy yuk masalalari ham demografik salohiyatga bevosita ta'sir qilmoqda. Migratsiya jarayonida ortga qaytgan fuqarolarning ijtimoiy-adaptiv muammolari, qayta integratsiyalashuvdagi qiyinchiliklar, ularning demografik qarorlariga (masalan, oilani rejalashtirish, farzand soni) ta'siri ham ilmiy o'rganilishi kerak bo'lgan yo'nalishlardandir.

Natijada, mavjud holat shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston sharoitida tashqi mehnat migratsiyasining aholi soni va uning shakllanish dinamikasiga ta'siri masalasi nafaqat dolzarb, balki murakkab, ko'p omilli, tizimli ilmiy yondashuvni talab qiluvchi muammo sifatida qaralmoqda. Ushbu muammoni chuqur tahlil qilish orqali demografik siyosat, migratsiya boshqaruvi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan strategik qarorlar asoslanishi mumkin.

2018-yildan 2025-yilgacha aholining umumiy soni 32656,7 mingdan 37543,2 mingtaga yetgan. Bu esa 6886,5 ming kishilik o'sish, ya'ni 21,1% lik demografik o'sishni bildiradi. Yiliga o'rtacha o'sish 983 ming kishini tashkil qilgan.

2-jadval

Aholi soni tez o'sayotgan hududlar (ming. kishi)

Hudud	2018	2025	O'sish	O'sish (%)
Samarqand viloyati	3720,1	4297,5	+577,4	15,5%
Farg'ona viloyati	3620,2	4144,7	+524,5	14,5%
Qashqadaryo vil.	3148,4	3640,9	+492,5	15,6%
Andijon viloyati	3011,7	3461,0	+449,3	14,9%

Manba: Muallif tomonidan ilmiy izlanishlar natijasida shakllantirildi

Ushbu hududlar yuqori tug'ilish darajasi, zich joylashgan aholi hududi bo'lganligi sababli mehnat migratsiyasining oqimi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

3-jadval

Aholi soni sekin o'sayotgan hududlar (ming. kishi)

Hudud	2018	2025	O'sish	O'sish (%)
Sirdaryo viloyati	821,9	930,7	+108,8	13,2%
Navoiy viloyati	958	1094,7	+136,7	14,3%
Jizzax viloyati	1352,4	1537,6	+185,2	13,7%
Qoraqalpog'iston Res.	1842,3	2029,7	+187,4	10,2%

Manba: Muallif tomonidan ilmiy izlanishlar natijasida shakllantirildi

Bu hududlarda iqtisodiy imkoniyatlar cheklangani, tashqi migratsiya darajasi pastligi va urbanizatsiya darajasining yetarlicha rivojlanmaganligi aholi o'sishini sekinlashishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Migratsiya oqibatida mamlakat ichidagi yoshlar sonining kamayishi, reproduktiv yoshdagi ayollarning chiqib ketishi, va oilalarning ajralib qolishi holatlari ko'paymoqda. Bu esa tabiiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Misol uchun, ayrim viloyatlarda tug'ilish ko'rsatkichlarining pasayishi migratsiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Mehnatga layoqatli aholining xorijda ishlashi ularning moliyaviy daromadlarini oshirsa-da, mamlakat ichida kadrlar tanqisligiga sabab bo'lmoqda. Bu ayniqsa qurilish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalarida yaqqol sezilmoqda. Shu bilan birga, ayrim ijtimoiy xizmatlar, xususan sog'liqni saqlash va ta'lim tizimida ham yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligi kuzatilmoqda.

4-jadval

Tashqi mehnat migratsiyasi ko'rsatkichlari (ming. kishi)

Hududlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	2384,8	2460,7	1838,2	1456,8	1562,9	1669,1	1775,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	144,6	157,4	117,8	109,9	118,1	126,3	134,5
Andijon	305,2	299,8	225,5	204,4	219,2	234,0	248,8
Buxoro	133,2	155,6	116,9	72,0	75,2	78,3	81,5
Jizzax	73,8	81,4	59,7	36,3	39,4	42,5	45,6
Qashqadaryo	177,9	212,5	162,1	113,6	122,0	130,3	138,7
Navoiy	37,7	40,9	28,1	21,1	22,7	24,3	25,9
Namangan	200,7	218,3	164,2	71,3	75,6	79,8	84,1
Samarqand	341,2	323,0	242,0	217,4	233,9	250,4	266,9
Surxandaryo	163,4	196,8	146,0	85,2	91,2	97,1	103,1
Sirdaryo	68,9	76,1	51,8	28,7	30,9	33,1	35,3
Toshkent	178,4	122,7	91,9	133,0	144,2	155,4	166,5
Farg'ona	283,7	297,4	225,6	150,2	161,3	172,4	183,5
Xorazm	154,3	169,8	127,8	119,9	128,3	136,7	145,2
Toshkent sh.	121,8	109,0	78,8	93,7	100,9	108,2	115,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat Statistika agentligi ma'lumotlari asosida shakllantirildi

2018-yilda xorijga ishlash uchun chiqib ketganlar soni 2384,8 ming kishi, 2020-yilda pandemiya sababli 1838,2 ming kishi – bu eng keskin pasayish, 2024-yilda esa son 1775,1 ming kishiga yetgan. Ya'ni, 2018-yilga nisbatan 2020-yilga kelib migratsiya oqimi 546,6 ming kishiga kamaygan. Bunga asosiy sabab – COVID-19 pandemiyasi va xalqaro harakatlanishdagi cheklovlarni ko'rsatish

mumkin. Shundan so'ng 2021-yildan boshlab mehnat migratsiyasi asta-sekin ko'payishni davom etmoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasi natijasida tug'ilish ko'rsatkichlari qisqarishiga, muayyan hududlarda qarish jarayonining tezlashishiga olib kelishi mumkin. Bu holat uzoq muddatli demografik siyosatga yangi yondashuvlarni talab qiladi. Demografik tahlil metodlari, regressiya modellar, va statistik prognozlash vositalari orqali tashqi migratsiyaning ta'sir darajasini aniqlash mumkin. Bu usullar orqali nafaqat hozirgi holat, balki kelajakdagi prognozlar ham tuziladi. Ijobiy jihatlari sifatida valuta tushumi, kasbiy tajriba orttirish, qaytgan migrantlar tomonidan ochilgan tadbirkorlik obyektlarini ko'rsatish mumkin. Salbiy jihatlar sifatida ijtimoiy bo'shliqlar, ajralgan oilalar sonining ko'payishi misol bo'lishi mumkin. O'zbekistonda migratsiya oqibatlarini yumshatish uchun bir qator dasturlarni amalga oshirmoqda. Masalan, "Ishga marhamat" monomarkazlari, qaytgan migrantlar uchun grantlar, huquqiy yordam markazlari. Biroq, bu choralar yana-da tizimli yondashuv bilan mustahkamlanishi zarur.

O'zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga, balki demografik tuzilma, aholi sonining tabiiy o'sish sur'atlari, hududiy muvozanat va mehnat resurslari salohiyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, migratsiya oqibatida ayrim viloyatlarda aholi zichligining kamayishi, tug'ilish ko'rsatkichlarining pasayishi va demografik yuklamaning ortishi kuzatilmoqda. Mehnatga layoqatli yoshlarning xorijga ketishi demografik muvozanatni buzmoqda, bu esa uzoq muddatli barqaror rivojlanishga tahdid solishi mumkin. Shuningdek, ayollar va bolalar zimmasiga tushayotgan ijtimoiy yuk, oilaviy barqarorlik va ijtimoiy himoya masalalarini chuqur tahlil qilish zarur.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va takliflarni keltirib o'tish mumkin:

➤ Demografik monitoring tizimini kuchaytirish lozim tashqi migratsiyaning hududiy va yosh tarkibidagi ta'sirini real vaqt rejimida kuzatib boradigan statistik axborot tizimini yaratish lozim.

➤ Hududlarda ish o'rinlarini yaratish orqali xorijga ketayotgan mehnat resurslarini ichki iqtisodiyotga jalb etish uchun hududlarda barqaror, samarali bandlik infratuzilmasini kengaytirish kerak.

➤ Reintegratsiya dasturlarini kuchaytirish natijasida chet eldan qaytgan fuqarolar uchun ijtimoiy moslashuv dasturlari ishlab chiqilishi zarur.

➤ Migratsiyaning gender ta'sirini ya'ni ayollar va bolalar taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish, ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

➤ Demografik prognozlashtirishga migratsiya omilini kiritish orqali aholi soni va tarkibini prognozlashda tashqi migratsiya parametrlarini hisobga oluvchi statistik modellar joriy etilishi kerak.

Адабиётлар:

1. Abduraufov D.M. (2024). *Dunyo miqyosida migratsiya turlari hamda undagi muommolar va uning O'zbekistonga ta'siri* //International conference on medicine, science, and education. – T. 1. – №. 3. – С. 118-127.
2. Amelina A., Horvath K. (2017) *Sociology of migration* //The Cambridge handbook of sociology: Core areas in sociology and the development of the discipline. – T. 1. – С. 455-464.
3. Davronova A.I. (2025). *O'zbekiston Respublikasida yoshlar migratsiyasining muammolari* //yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – T. 2. – №. 7. – С. 298-300.
4. Mallayev N.R., Xolmurodova S.J., (2025). "Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko'mak ko'rsatish." Vol. 8 No. 5: Journal of law and economics <https://sirpublishers.org/index.php/jolae/article/view/1082/>
5. Massey, D. (1993). *Theories of international migration: A review and appraisal [Text]* / D. Massey // Population and Development Review. – Vol. 19. – № 2. – P. 431-466.
6. Гулмуродов К. А. (2022). *Ме́хнат миграциясининг аҳолини иш билан бандлигини таъминлашда тутган ўрни* //Архив научных исследований. – Т. 2. – №. 1.
7. Шенэ, Ж.К. (2007). *Миграция как инструмент развития [Текст]* / Ж.К. Шенэ // Миграция и развитие: доклады и статьи ведущих секций и докладчиков международной конференции «Миграция и развитие». – М.: Би Эль Принт. – С. 7-11.
8. Ядов В. А. (2002). *Некоторые социологические основания для предвидения будущего российского общества* // В кн.: Россия реформирующаяся. Ежегодник / Отв. ред.: Л. М. Дробижева. М. : Academia, 2002. С. 249-263.

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

